



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI MAMLEKETLIK AKTIVLER BASQARMASI
BUYRIG'I**

2023 jil. 11-Yanvar

№09

Nókis qalasi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdagi PQ-168-sonli qarorining 2-ilovasidagi davlat mulki ob’ektini baholangan bahoda “e-auksion” elektron savdo platformasida auksion savdolariga chiqarish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-fevraldagi «Davlat mulki ob’ektlaridan samarali foydalanish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5666-sonli va 2021-yil 8-iyuldagi PF-6258-sonli Farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-oktyabrdagi “Davlat mulki ob’ektlarini xususiylashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 279-sonli va 2022-yil 14-fevraldagi 71-sonli qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-avgustdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasida tadbirkorlik, innovatsion texnologiyalar va infratuzilmalarni jadal sur‘atlarda rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-213-sonli Farmoni va 2022-yil 18-martdagi “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-168-sonli qaroriga asosan **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-168-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. Mazkur qarorga asosan sotilishi belgilangan Kegeyli tumani, “Baxitli” MFY, Xalkabad shox ko‘chasi 1/2 uyda joylashgan “**Xammom binosi**”ni (qurilish osti maydoni 83,57 kv.metr) “**Nukus baholash va konsalting**” MChJ baholovchi tashkilotining 2023-yil 10-yanvardagi 01/01-2023-sonli baholash to‘g‘risidagi xisobotiga asosan **43 212 637** (qirq uch million ikki yuz o'n ikki ming olti yuz o‘ttiz yetti) so‘mga baholanganligi va “**BIZNES BAXA ORAYI**” MChJ baholovchi tashkilotining baholash to‘g‘risidagi xisobotining ishonchligini ekspertizadan o‘tkazish natijalari to‘g‘risidagi 2023-yil 10-yanvardagi ekspert xulosasiga muvofiq baholash hisoboti haqqoniy deb topilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Hududiy boshqarmaning axborot xizmatlari bo‘yicha bosh mutaxassisi (Mamutov) “e-auksion” elektron savdo platformasida savdolar o‘tkazilishi to‘g‘risida “Birja” gazetasida va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining davriy nashrlarida shuningdek, Agentlikning veb-saytida tegishli e’lonlar berilishini ta’minlasin.

4. Boshqarmaning davlat aktivlarini sotishga tayyorlash va sotish ishlarini muvofiqlashtirish bo‘limi (Karlibaev), Kegeyli tumani, “Baxitli” OFY, Xalkabad shox ko‘chasi 1/2-uyda joylashgan “Xammom binosi”ni 43 212 637 (qirq uch million ikki yuz o'n ikki ming olti yuz o‘ttiz yetti) so‘m boshlang‘ich narx sifatida belgilangan holda “e-auksion” elektron savdo platformasida savdosiga chiqarilishini ta’minlasin.

5. “Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish markazi” DUKdan o‘rnatilgan tartibda yuqorida ko‘rsatilgan davlat mulki ob’ektini “e-auksion” elektron savdo platformasiga

qo'yishda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish so'ralsin:

-Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-iyundagi 454-sonli va 2022-yil 12-yanvardagi 18-sonli qarorlari bilan tasdiqlangan Nizom talablaridan kelib chiqib, ilovada keltirilgan davlat mulki ob'ektlarini yagona mulkiy majmua sifatida boshlang'ich narxda auksion o'tkazilishidan kamida 30 kun oldin "e-auksion" elektron savdo platformasiga chiqarish;

- yagona mulkiy majmua sifatida boshlang'ich narxda savdolarga chiqarilayotgan davlat mulki ob'ektining zakalat puli miqdorini quyidagicha:

a) ob'ekt boshlang'ich narxi BHMning 100 baravarigacha bo'lganda, boshlang'ich narxning 15 foizi miqdorida;

b) ob'ekt boshlang'ich narxi BHMning 100 baravariga teng yoki undan yuqori, lekin BHMning 1000 baravarigacha bo'lganda, boshlang'ich narxning 10 foiz miqdorida;

v) ob'ekt boshlang'ich narxi BHMning 1000 baravariga teng yoki undan yuqori bo'lganda, boshlang'ich narxning 5 foizi miqdorida belgilansin;

- yagona mulkiy majmua sifatida boshlang'ich narxda savdolarga chiqarilayotgan davlat mulki ob'ektlarining auksion qadamlarini quyidagicha

g) auksion ob'ekti boshlang'ich qiymatining 10 foizini;

d) ob'ektning boshlang'ich qiymati BHMning 2000 baravaridan ortiq bo'lganda, auksion qadami 5 foiz miqdorida belgilansin;

- yuqorida ko'rsatilgan davlat mulki ob'ektini 30-kun muddat ichida sotilmagan taqdirda, tashkillashtirilgan auksion savdolarida mazkur ob'ektning boshlang'ich qiymati bo'yicha har 10 kunda ushbu ob'ektni "e-auksion" elektron savdo platformasiga joylashtirilishini ta'minlash;

-eng yuqori sotib olish qiymatini taklif etgan ishtirokchini g'olib deb topish bo'yicha g'oliblik bayonnomasini rasmiylashtirish;

6. Hududiy boshqarmaning shartnomalarni rasmiylashtirish va monitoringi bo'limi (Tanatarov) o'tkazilgan savdo natijalariga ko'ra g'olib bilan davlat mulki ob'ektining balansda saqlovchisi o'rtasida belgilangan tartib va muddatlarda oldi-sotdi shartnomasini rasmiylashtirilishini ta'minlash vazifasi topshirilsin.

7. Hududiy boshqarmaning Xususiylashtirish va boshqa manbalardan tushgan mablag'larning hisobini yuritish sho'basini (Saparniyazov) ro'yxatga olingan oldi-sotdi shartnomalarida belgilangan pul mablag'larini o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilsin.

8. Murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisi (Jiemuratova) mazkur buyruq nusxalarini boshqarmaning Axborot xizmatlari bo'limi (Mamutov), Davlat aktivlarini sotishga tayyorlash va sotish ishlarini muvofiqlashtirish bo'limi (Karliybaev), Shartnomalarni rasmiylashtirish va monitoringi bo'limi (Tanatarov), Xususiylashtirish va boshqa manbalardan tushgan mablag'larning hisobini yuritish sho'basiga (Saparniyazov) va Bo'sh turgan ob'ektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasi (Embergenov)ga shaxsan yetkazilishini ta'minlasin.

9. Hududiy boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari v.v.b. A.Sanetullaev mazkur buyruqning ijrosi ustidan nazorat o'rnatishga mas'ul etib belgilansin.

Boshqarma boshlig'i



M.Radjabov